



FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

FARG'ONA VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI



2024- yil
yanvar-aprel




Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-aprel)



**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlik
ulushi – 66,0%**



**Aholi jon boshiga
xizmatlar hajmi –
2 420,1 ming
so'm**




**Xizmatlar
sohasidagi korxonalar
va tashkilotlar
ulushi – 34,0%**



**Xizmatlar hajmi
9 851,0 mlrd.
so'm**

Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.


Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (1-may holatiga ko'ra)



Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (yanvar-aprel)




Soni, birlikda



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(1-may holatiga ko'ra)



Soni, birlikda

2024

21 942

2023

23 312

2022

25 813

2021

22 630

2020

18 009

Soni, birlikda

2024

1 520

2023

1 751

2022

1 715


2021

1 644


2020

1 031


Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari (yanvar-aprel)



Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-aprel)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi (2024- yil yanvar-aprel)



¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2020-2023- yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan

Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-aprel)

Hudud	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Farg'ona viloyati	9 851,0	100,0	111,5
Farg'ona shahar	2 713,6	27,5	110,9
Qo'qon shahar	1 640,2	16,7	112,5
Quvasoy shahar	209,1	2,1	111,3
Marg'ilon shahar	761,1	7,7	111,4
Oltiariq tumani	508,3	5,2	111,2
Qo'shtepa tumani	297,1	3,0	110,1
Bag'dod tumani	276,5	2,8	111,1
Buvayda tumani	447,1	4,5	114,1
Beshariq tumani	287,6	2,9	110,7
Quva tumani	342,1	3,5	111,2
Uchko'prik tumani	444,3	4,5	113,4
Rishton tumani	301,7	3,1	112,4
So'x tumani	128,3	1,3	110,0
Toshloq tumani	325,0	3,3	111,4
O'zbekiston tumani	266,9	2,7	111,2
Farg'ona tumani	323,6	3,3	110,9
Dang'ara tumani	262,3	2,7	110,9
Furqat tumani	162,2	1,6	111,0
Yozyovon tumani	154,0	1,6	110,3

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.


Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-aprel)



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar-aprel)

Hudud nomi	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati
Farg'ona sh.	8 411,6	+8,4 %
Qo'qon sh.	5 311,6	+10,9 %
Marg'ilon sh.	2 997,8	+8,5 %
Oltiariq	2 220,7	+9,0 %
Quvasoy sh.	2 062,5	+8,8 %
Buvayda	1 835,8	+11,5 %
Uchko'prik	1 804,3	+11,0 %
So'x	1 527,3	+7,7 %
Dang'ara	1 490,0	+8,1 %
Toshloq	1 477,0	+9,7 %
Farg'ona t.	1 457,8	+8,7 %
Qo'shtepa	1 423,4	+7,7 %
Rishton	1 387,7	+10,0 %
Yozyovon	1 283,0	+8,0 %
Furqat	1 272,8	+8,6 %
Quva	1 238,1	+9,2 %
Beshariq	1 183,7	+8,7 %
Bag'dod	1 182,7	+8,7 %
O'zbekiston	1 127,1	+8,5 %


Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-aprel)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik korxonalar subyektlarining ulushi **66,0** foizni, shu jumladan, **21,0** foizni kichik tadbirkorlik va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik

(2024- yil yanvar-aprel holatiga)




Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-aprel holatiga)

Nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	9 851,0	100,0	111,5
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	519,2	5,3	114,1
Moliyaviy xizmatlar	2 157,3	21,9	117,6
Transport xizmatlari	1 879,4	19,1	107,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 750,6	17,8	107,7
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	258,0	2,6	106,8
Savdo xizmatlari	2 882,7	29,3	110,6
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	228,2	2,3	109,1
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	380,5	3,9	111,1
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	200,5	2,0	103,8
Ijara xizmatlari	192,8	1,9	114,0
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	263,8	2,7	109,7
Shaxsiy xizmatlar	493,3	5,0	110,6
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	91,8	0,9	111,1
Boshqa xizmatlar	303,5	3,1	113,1

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(yanvar-aprel)




Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar (2024- yil yanvar-aprel, mlrd. so'mda)

Farg'ona sh.	1008,8
Qo'qon sh.	491,7
Buvayda	166,6
Marg'ilon sh.	78,5
Quva	64,0
Rishton	41,6
Uchko'prik	40,1
Beshariq	31,3
Oltiariq	31,3
Quvasoy sh.	30,2
O'zbekiston	25,7
Farg'ona t.	23,8
Toshloq	23,8
Bag'dod	22,9
Dang'ara	22,1
Qo'shtepa	20,8
Yozyovon	12,6
So'x	11,9
Furqat	9,7

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2024- yil yanvar-aprel)

Yordamchi moliyaviy faoliyat




Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Farg'ona shahrining ulushi **46,8** foizni yoki **1 008,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. **2023- yilning yanvar-aprel** oyiga nisbatan Furqat tumanida yuqori o'sish sur'ati **124,9** % ni tashkil etdi.

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **93,2 %**.

Farg'ona shahrida transport xizmatlari hajmi **387,9** mlrd. so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **112,5 %** ni tashkil etgan.


Transport xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-aprel)



Hududlar kesimida transport xizmatlari

(2024- yil yanvar-aprel)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda ⚙️ O'sishi

Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi (yanvar-aprel) ¹⁾

2024- yil yanvar-aprel oyida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 750,6 mlrd. so'mga** yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **17,8 %** ni tashkil etdi.



Hudud nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati
Qo'qon sh.	349,5	+6,7%
Farg'ona sh.	327,5	+8,0%
Marg'ilon sh.	206,2	+8,8%
Oltiariq	150,9	+7,6%
Toshloq	94,0	+14,5%
Qo'shtepa	81,8	+7,0%
O'zbekiston	58,2	+14,5%
Dang'ara	54,3	+6,9%
Rishton	51,4	+23,7%
Farg'ona t.	46,2	+7,0%
Uchko'prik	45,7	+6,5%
Bag'dod	44,8	+6,8%
Quva	44,1	+6,9%
Beshariq	39,6	+6,9%
Furqat	39,3	+6,9%
Quvasoy sh.	39,3	+7,0%
Buvayda	36,9	+6,9%
So'x	21,1	+7,2%
Yozyovon	20,0	+6,8%

Hududlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari (2024- yil yanvar-aprel)



Transport xizmatlari umumiy hajmida Qo'qon shahrining ulushi **20,0 foizni** yoki **349,5 mlrd so'mni** tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan Rishton tumanida **123,7 foiz** yuqori o'sish sur'ati qayd etildi.

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

2024- yilning yanvar-aprel oyida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rtidan uch qismini, ya'ni **70,3** foizni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-aprel)



Hududlar kesimida savdo xizmatlari (2024- yil yanvar-aprel)



Hudud nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sishi
Farg'ona sh.	425,0	+12,5%
Qo'qon sh.	321,4	+8,5%
Uchko'prik	248,3	+20,9%
Marg'ilon sh.	217,3	+8,6%
Oltiariq	212,6	+9,8%
Buvayda	150,4	+15,4%
Quva	127,3	+11,5%
Qo'shtepa	126,1	+9,4%
Beshariq	121,5	+11,2%
Bag'dod	120,6	+13,7%
Toshloq	118,5	+7,2%
Dang'ara	111,7	+10,4%
Farg'ona t.	111,1	+8,1%
Rishton	93,1	+12,2%
O'zbekiston	89,2	+8,4%
Yozyovon	86,8	+11,3%
Quvasoy sh.	81,0	+11,3%
Furqat	63,1	+11,1%
So'x	57,7	+8,7%


¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda ○ O'sishi




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2024- yilning yanvar-aprel** oyida ularning ulushi **90,5** foizni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-aprel)



Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024- yil yanvar-aprel)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd. so'mda

O'sish

Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-aprel)



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2024- yil yanvar-aprel** oyidagi ulushi **52,7%** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-aprel, mlrd. so'mda)



Hududlar orasida ta'lim sohasidagi eng katta hajm Farg'ona shahriga to'g'ri keladi. Mazkur hududda ushbu xizmat turi hajmi **188,0** mlrd so'mga yoki ta'lim sohasidagi xizmatlar umumiy hajmining **49,4** foiziga yetdi.


Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-aprel)

2024- yil-ning yanvar-aprel oyida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmi-da shifoxona muassasalarining xizmatlari salmoqli qismni egallaydi. Ularning ulushi **42,3** foizni tashkil etdi.




Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-aprel holatiga)




Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi ¹⁾

(yanvar-aprel)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **91,8** foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2024- yil yanvar-aprel)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


■ Hajmi, mlrd. so'mda ○ O'sish (kamayish)

2024- yilning yanvar-aprel oyida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **84,1** foiz.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi ¹⁾ (yanvar-aprel)



Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024- yil yanvar-aprel)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi

Ijara xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-aprel)




Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2024- yil yanvar-aprel, mlrd. so'mda)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-aprel)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining **63,3** foizini tashkil etadi.


Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024- yil yanvar-aprel)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd so'mda ● O'sish

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-aprel holatiga)



Hududlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-aprel holatiga, mln. so'mda)



2020- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan joriy yilning tahlil qilinayotgan davrida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **58,0** mlrd. so'mga oshib, **91,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Farg'ona shahrining ulushi **75,7** % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Telekommunikatsiya xizmatlari bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.